



FACTORS ENSURING FAMILY STABILITY

Aziza Turayeva

*Associate Professor, Department of Philosophy and Sociology
Karshi State University
Karshi, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: family, family environment, attitudes toward women, women's social activation, women's migration, services provided to women.

Abstract: This article discusses the role and impact of women in ensuring family stability. In particular, it analyzes the opportunities aimed at supporting the institution of the family in Uzbekistan.

Received: 19.04.26

Accepted: 20.04.26

Published: 21.04.26

OILA MUSTAHKAMLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR

Aziza Turayeva

*Qarshi davlat universiteti
Falsafa va sotsiologiya kafedrasida dotsenti
Qarshi, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: oila, oilaviy muhit, ayollarga munosabat, ayollarning ijtimoiy faollashuvi, ayollar migratsiyasi, ayollarga ko'rsatiladigan xizmatlar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila mustahkamligini ta'minlashda ayollarning o'zni va ta'siri haqida so'z yuritilgan. Xususan, O'zbekistonda oila institutini qo'llab-quvvatlash, ayollarning ijtimoiy maqomini oshirishga qaratilgan imkoniyatlar tahlil qilib berilgan.

ФАКТОРЫ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ УСТОЙЧИВОСТЬ СЕМЬИ

Азиза Тураева

Доцент кафедры философии и социологии

*Каршинского государственного университета
Карши, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: семья, семейная среда, отношение к женщинам, социальная активизация женщин, миграция женщин, услуги, предоставляемые женщинам.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и влияние женщин в обеспечении устойчивости семьи. В частности, проанализированы возможности, направленные на поддержку института семьи в Узбекистане и повышение социального статуса женщин.

Kirish. Insonning taqdiri, kelajakdagi yutuqlari yoki muvaffaqiyatsizligi, baxtli yoki baxtsizligi, hayotiy mo'ljallari va ideallari, hattoki kayfiyatlari va qadriyatlar olami uning yashab turgan oilaviy muhitiga bog'liq. Oila poydevorini mustahkamlashda, oilaviy muhitning sog'lomlashuvida esa ayolning o'rni beqiyos, binobarin, jamiyatning ravnaqi ham onalar va ayollarning madaniy darajasiga bog'liqdir.

Adabiyotlar tahlili. Jadidchi olim A.Fitrat (1886-1938) o'zining "Oila" asarida ayolning bilimi va madaniy saviyasining oilaviy muhitga har tomonlama ta'sirini ta'kidlab, shunday yozadi: "Bu matlab (taraqqiyot-A.T)ga erishish uchun xotinlarimiz va qizlarimiz –millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur. Aks holda xotinlarimiz erkaklardan ham qo'rqoqroq, zaifroq va g'ayratsiz bo'lganlaridan bolalarimiz ham ularga o'xshab ketadilar[1]. Mana shu oyati karima ham shu ma'noga ishora qiladi: "Pokiza yerdan toza va foydali o'simlik oson o'sadi va pokiza bo'lmagan yerdan xor-xasdan boshqa narsa chiqmaydi"[2] (Qur'oni karim. A'rof surasi, 58-oyat). Demak, farzandlarning kelajakda qanday inson bo'lib voyaga yetishlari, ularga onalari nima bera olganliklariga bog'liq bo'ladi. Holbuki, millatimizning boshqa ko'plab ma'rifatparvarlari ham yangi avlodning qanday bo'lishi millat tarbiyachisi sanalgan ayollarning bilimi bilan bog'liqligini ta'kidlab kelishgan. Onaning dunyoqarashi kengligi, ma'naviy-ma'rifiy boyligi, huquqiy savodxonligi, mafkuraviy tarbiyalanganligi, diniy ilmdan boxabarligi, tabiiy va ijtimoiy fanlarni bilish darajasi, xullas aqliy salohiyati qanchalik yuqori bo'lsa, uning farzandini ham kelajak imkoniyatlari shunchalik yuqori bo'ladi.

Insoniyat tafakkuri tarixida boshqa ko'plab faylasuf va mutafakkirlar ham ayolning jamiyatdagi o'rni va qadrini alohida ta'kidlab kelgan. Xususan, Konfutsiy jamiyat madaniy darajasini undagi ayollarga bo'lgan munosabat orqali bilish mumkinligini aytadi. Volter esa ayolni erkakni tarbiyalaydigan eng buyuk ustoz sifatida ta'riflaydi. Napoleon Bonapart bolaning eng

yaxshi maktabi onaning qalbi ekanini ta'kidlaydi. Qadimgi yunon faylasufi Aristotel ayollarning tarbiyasi butun jamiyat kelajagini belgilashini qayd etgan.

Yevropa mutafakkirlari ham ayolning ma'naviy kuchini yuksak baholagan. Viktor Gyugo ayolni mehr, sabr va go'zallik timsoli deb bilgan. Iogann Volfgang fon Gyote ayol qalbi erkakni ulug' ishlarga ilhomlantiradigan kuch ekanini aytgan. Jan-Jak Russo ayolni hurmat qilgan erkak aslida o'zini hurmat qilgan bo'lishini ta'kidlaydi. Rus adibi va mutafakkiri Lev Tolstoy esa ayolni oilaning yuragi deb ta'riflab, yurak sog'lom bo'lsa butun jamiyat sog'lom bo'lishini ta'kidlaydi. Mahatma Gandi ayol sabr va mehr orqali eng kuchli mavjudot ekanini aytgan. Hind mutafakkiri Rabindranat Tagor ayolni hayotga ma'no va ruh bag'ishlaydigan nozik kuch deb ta'riflagan.

Shunday qilib, turli davr va madaniyatlarda yashagan buyuk mutafakkirlar bir fikrga keladi: ayolga hurmat — jamiyatning ma'naviy darajasini belgilovchi eng muhim mezonlardan biridir.

Sharq-u, g'arbda shakllangan imperativlarga ko'ra ayollar go'zallik ramzi sifatida, erkaklar esa yuksaklik ramzi sifatida ulug'lanib kelingan. Zero, har bir jins vakilining o'ziga xos qobiliyati bo'lib, bu qobiliyat unga tabiat tomonidan in'om etilgan bo'ladi. Uni almashtirishga urinish diniy tomondan ham, ham dunyoviy tomondan qattiq qoralanadi.

Muhokama va natijalar. Zamonaviy dunyo oila institutida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Agar ilgari, an'anaviy oilada, boshqaruvchi erkak bo'lsa, zamonaviy egalitar oilada har ikkala hamkor ham teng imtiyozlar, huquqlar va mas'uliyatlarga ega. Zamonaviy oila barqaror jamiyatning asosi hisoblanadi. Sifatli inson kapitali faqat uyg'un va muvaffaqiyatli oilada yaratiladi. Insonning rolini o'zgartirish – bu rivojlanish ko'rsatkichidir: jamiyat asta-sekin gender stereotiplarini rad etadi va oilaviy munosabatlarda yangi sheriklik yondashuvini shakllantiradi. Har bir oilaning mikro darajasida ushbu o'zgarishlarni davlat darajasida qo'llab-quvvatlash muhimdir.

Xotin-qizlarni e'zozlash, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatish, islohotlar jarayonida faolligini oshirish, salomatligini mustahkamlash, kuchli, aniq va manzilli himoyalash Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridir. Davlatimiz rahbari "Biz Uchinchi Renessans poydevorini qurish, jamiyatda yangi ma'naviy makonni yaratish haqida gapirar ekanmiz, bu ishlarni oila, onalar ma'naviyati bilan uzviy amalga oshirishimiz zarur"[3], deb bejizga ta'kidlamagan edi. Shuning uchun ham Prezident xotin-qizlarni oliy ma'lumot olishlari uchun ham bir qator imtiyozlarni taqdim etdi.

Zamonaviy jamiyatda ayollarning roli tobora ortib bormoqda. Dunyoning barcha mamlakatlarida ularning iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, ijtimoiy hayotdagi ulushi tobora ortib bormoqda. Ayollarning tengligi uchun kurash bizning zamonamizning eng dolzarb

muammolaridan biridir. Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish faoliyati faollashdi va XXI asr ostonasida kuchli global sur'at va xalqaro ovozga ega bo'ldi. BMT bosh Assambleyasi tomonidan jamiyatda erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglikka erishish uchun bir qator hujjatlar qabul qilindi, shu jumladan "Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risidagi konvensiya".

Markaziy Osiyo mamlakatlarida birinchilardan bo'lib, O'zbekiston xotin-qizlarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risidagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining konvensiyasiga qo'shildi, O'zbekiston ham fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro bitimlarni imzoladi. O'zbekiston ayollarning kamsitilishini qoralaydi, chunki u ayollarning o'z mamlakatining barcha sohalarida erkaklar bilan teng ravishda ishtirok etishiga to'sqinlik qiladi, ayollarning huquq va imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarishni qiyinlashtiradi. Gender tengligiga erishishga qaratilgan Qonunchilik, institutsional, ta'lim va monitoring choralari inson huquqlari bo'yicha Qo'mitaning tavsiyalarini bajarish bo'yicha milliy harakat rejasida mustahkamlangan. Rivojlangan mamlakatlarda ayolning ijtimoiy faolligi darajasi ancha katta. Shu boisdan ham mamlakat rahbarlari, Bosh vazirlar, vazirlar, korxonalar va tashkilot rahbarlari orasida ayollarning soni ko'paymoqda. Bu rivojlangan mamlakatlarda uzoq yillar davomida shakllangan ayollar huquqiga oid hujjatlarning amalda qo'llanishi mahsulidir. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatiga qo'shilishi bilan globallashtirish natijasi o'laroq ushbu huquqiy normalar bizning mamlakatimizga ham kirib kela boshladi. Natijada ayollarning ijtimoiy faolligi darajasi keskin oshdi. O'zbek ayollari bugungi kunda jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarda faol ishtirok qilmoqdalar. 2024 yilda O'zbekiston Qonunchilik palatasiga nomzod ayollarning ulushi eng yuqori ko'rsatkichga yetdi va 44,7% ni tashkil etdi. Senat raisi, tuman hokimi, elchi lavozimlarida ham ayollar muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqdalar. O'zbek ayollari orasida o'nlab O'zbekiston qahramonlari, fan arboblari, xalq o'qituvchilari bor. Bunday fidoyi ayollar haqida davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev:»...Ularning barchasi O'zbekiston insoniy salohiyatining oltin fondini tashkil etadi»[4], degan edi. Bu, albatta, yaxshi tendensiya, lekin buning oqibatida ayolning oilada bo'lish vaqti keskin kamayib ketmasligi lozim.

Iqtisodiy, madaniy, kommunikatsion aloqalarning umumsayyoraviy xarakter tus olishi mehnat migratsiyasi bilan bog'liq tendensiyaning kuchayishini ham jadallashtirmoqda. Mehnat migratsiyasi O'zbekiston kabi ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarni jalb qilmoqda. Zotan, shu mavzuga bag'ishlangan tadqiqotlarda qayd qilinishicha, O'zbekistonda ham mehnat migratsiyasi ko'lami ortib bormoqda. Mehnatga yaroqli aholi orasida o'zga mamlakatlardan ish izlash tendensiyasi, ya'ni mehnat migratsiyasi yuzaga kelayapti. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda,

mehnat migratsiyasi mamlakatdagi iqtisodiy faol aholining taxminan 12 foizini qamrab olmoqda. Bu oqim asosan, Rossiyaning turli mintaqalariga va Qozog‘istonning janubiy viloyatlariga yo‘nalgan. Keyingi yillarda Germaniya, Turkiya, Janubiy Koreya, AQSH kabi mamlakatlarda ham ko‘plab hamyurtlarimizning mehnat qilayotganini qayd etilmoqda. Bu holatlar o‘zbek oilasidagi muhitga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatmoqda.

Birinchidan, mehnat migrantlari orasida ayollar salmog‘ining ham oshib boryotganligi oilaviy munosabatlarning onani ishtirokisiz amalga oshayotganligini ko‘rsatadi. Migratsiya agentligining ma’lumotiga ko‘ra, 2025 yil, 24 yanvar holatida O‘zbekistondan xorijiy davlatlarga ishlash uchun chiqib ketgan ro‘yxatga olingan muhojirlar soni 1 million 340 ming nafarni tashkil qiladi. Tahlillarga ko‘ra, ushbu fuqarolarning 20 foizini ayollar tashkil etadi[5]. Bizningcha, farzandlarini tashlab chet elga ishlashga ketgan muhojir ayollardan faqatgina unchalik uzoq muddatga ketmagan intellektual ayollarnigina oqlash mumkin.

Ikkinchidan, mamlakatimiz fuqarolarining muayyan qismi chet ellarga ishlashga ketayotganligi munosabati bilan moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish chiqarishda ayollar ulushining salmog‘i oshib bormoqda. Ayniqsa ta’lim muassasalari pedagog xodimlarining aksariyat qismini ayollar tashkil qiladi. Maktabda ishlaydigan hamkasb dugonam bir suhbatda maktabiga ikkita yosh o‘qituvchi yigitning ishga kelganligini o‘quvchilar bayram sifatida qabul qilishganlarini, ayniqsa o‘g‘il bolalar yangi o‘qituvchilarining topshiriqlarini bajonidil bajarishayotganligi, yurish-turishlarida ularga taqlid qilishayotganligini gapirib berdi. Darhaqiqat, maktablarimizga erkak o‘qituvchilar juda kerak. Davlatimiz rahbarining ta’lim tizimining sifatini yanada oshirish va takomillashtirishga oid karorlari, pedagog xodimlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning maoshlarini oshirilishi kabi tizimli chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi erkak o‘qituvchilarning ma’lum qismini ta’lim muassasalariga qaytishini ta’minlamoqda. Ayniqsa o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning ta’lim-tarbiya jarayonida erkak pedagoglarning ishtiroki ularning ongida nafaqat bilimli, balki qat’iyatli va sabotlilik kabi erkaklik sifatlarini qaror toptirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Hukumatimiz tomonidan tomonidan o‘zbek oilasidagi muhitni yanada insonparvarlashtirish uchun, onalarni o‘z farzandlari bag‘rida mehnat qilishi uchun xotin-qizlarga yetarlicha sharoit yaratib berilmoqda. Kasb-hunarga tayyorlash, qayta tayyorlash, oliy ta’limga qabuldagi imtiyozlar shular jumlasidandir. Ayollarga ko‘rsatiladigan xizmatlar qamrovi ham oshib bormoqda. Huquqiy, psixologik, tibbiy, moliyaviy xizmatlardan foydalanish, ishga joylashish borasida ko‘plab imkoniyatlar taqdim etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Фитрат Абдурауф. Оила ёки уни бошқариш тартиблари. Т:Маънавият, 2000, 25-б.
2. Куръони Карим. А. Мансур таржимаси. – Т.: Чўлпон, 1992.- 157-б.
3. <https://xs.uz/uzkr/post/prezident-shavkat-mirziyoev-oqila-ayollar-harakatini-tashkil-qilishni-taklif-etdi>
4. Мирзиёев Ш. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. 107-б.
5. <https://www.gazeta.uz/uz/2025/01/24/migratsiya>